



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 202 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish	101
Karimova Nargiza Raximovna	



Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlari	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida)	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Sherali qizi	



RASHK MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI

Ummatova Sitora Shavkatulloyevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada psixologiya fanida rashk fenomenining ilmiy tahlili asosida uning turlari va psixologik mohiyati yoritib berilgan. Rashkning negizini kognitiv, xulq-atvor va affektiv jihatlar tashkil etishi; rashkning psixologik xususiyatlari qatorida emotsiya va ishonchsizlik holatlari; rashkning qisqa muddatli, uzoq muddatli, ehtirosli, faol, passiv va azobli ko'rinishlari hamda turlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, rashk, emotsiya, psixologik holat, ijtimoiy munosabatlar, rashkning psixologik xususiyatlari, ishonchsizlik, rashk mohiyati, rashk shakli, qisqa muddatli, uzoq muddatli, faol, passiv, rashkning negizi, kognitiv, xulq-atvor, affektiv.

Abstract: The article describes the psychological essence of jealousy and, based on scientific analysis, justifies the typology of the phenomenon of jealousy in psychology. Types of jealousy are given: short, long-term, active, passive; basics of jealousy: cognitive, behavioral, affective; psychological characteristics of jealousy as distrust.

Key words: psychology, jealousy, emotion, psychological state, social relations, psychological characteristics of jealousy, distrust, the essence of jealousy, types of jealousy, short jealousy, long-term jealousy, active, passive, the basis of jealousy, cognitive, behavioral, affective.

Аннотация: В статье описана психологическая суть ревности и на основе научного анализа обоснована типология феномена ревности в психологии. Приведены виды ревности: короткая, долгосрочная, активная, пассивная; основы ревности: когнитивная, поведенческая, аффективная; психологические особенности ревности как недоверие.

Ключевые слова: психология, ревность, эмоция, психологическое состояние, социальные отношения, психологические особенности ревности, недоверие, суть ревности, виды ревности, короткая ревность, долгосрочная ревность, активная, пассивная, основа ревности, когнитивная, поведенческая, аффективная.

KIRISH

Bugungi kunda fan taraqqiyotida shaxslarning turli-tuman emotsional holatlari alohida belgilanib, chuqur tahlil qilinmoqda; bu esa shaxs farovonligi, hissiy muloqoti, tafakkuri, ma'naviyati, axloqi va boshqa jihatlarni ham qamrab oladi.

Rashk fenomeni keng tarqalganiga qaramay, psixologiya fanida uning mohiyati, qonuniyatlari va determinantlari to'g'risida aniq, yaxlit tasavvur mavjud emas. Afsuski, psixologiyada rashk fenomeni va uning psixologik mexanizmi yetarlicha o'rganilmagan. Rashkning har bir inson hayotiga ta'siri qanday oqibatlarga olib kelishi, bu holatda nima qilish lozimligi haqidagi ishonchli manbalar kamchilik qiladi. Rashk hissining kelib chiqish sabablari, uning oila barqarorligiga ta'siri masalalari tadqiqotchilar uchun dolzarb, muhim va hali chuqur yoritilmagan mavzu bo'lib qolmoqda.

Rashk hissi insonga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ruhiy holat bo'lib, tajovuzkorlik va xudbinlikka moyillikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, rashk muammosi insonning qadr-qimmatini bilan bog'liq kechinmalarini, turli munosabatlardagi reaksiyalarini ham ifodalaydi.

Ayni paytda psixologiya fanida rashk, uning mexanizmlari, ko'rinishlari va inson hayotida bajaradigan vazifalari kabi masalalar bu hodisaning nazariy va amaliy jihatlarini yanada boyitish, aniqlashtirish maqsadida tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, xorijiy psixologiyada shaxslararo ta'sir bilan bog'liq rashkning turli vaziyat va dinamik xususiyatlari ma'lum darajada o'rganilgan. Biroq O'zbekiston sharoitida rashk mustaqil psixologik hodisa sifatida hanzugacha ilmiy tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fanning turli sohalarida rashk fenomeni faoliyatdagi g'ayrat-shijoat, o'zaro munosabatda bir kishining boshqasini bo'ysundirish istagi sifatida (ota-ona, turmush o'rtog'i, farzandlar va boshqa munosabatlarda) ijtimoiy hayotda real mavjud. Shuningdek, rashk insonda boshqa insonga nisbatan o'z mulki sifatida egalik qilish tuyg'usini ham namoyon etadi.

Qayd etish kerakki, rashk hissini boshdan kechirayotgan insonda aldanish va yolg'iz qolish qo'rquvi, xiyonat qo'rquvi kabi tuyg'ular birdaniga yuzaga keladi, shunga mos fobiylar paydo bo'ladi. Natijada rashkchilar keskin reaksiyalar sifatida o'zlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlari ustidan nazoratni yo'qotadilar.

Rashkning xavfli tomoni shundaki, u insonning hissiy va fiziologik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ko'plab psixosomatik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Rashk fenomeni insonning nafaqat psixologik, balki bioenergetik holati bilan bog'liq holda ham izohlanadi. Shu sababli rashk fenomenini izohlashda turlicha yondashuvlarga duch kelamiz: "Rashk - bu o'z ta'sirini yo'qotishdan qo'rqish. Rashk qo'rqoqlikka o'xshaydi. Bu muhabbat borligini isbotlaydigan yuksak tuyg'u emas, balki o'z kuchiga bo'lgan ishonchning doimiy yetishmasligidan tug'ilgan qo'rquv. Rashk - bu o'z ojizligini ongsiz ravishda aks ettiruvchi hissiyotdir".

An'anaviy tarzda rashk hissi sevgi-muhabbat tushunchasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Rashk va sevgi o'rtasidagi bog'liqlikni odamning egalik qilish istagidagi obyektiga nisbatan shubhali munosabati, uning sadoqati yoki xiyonati to'g'risidagi alamli gumoni, rashk fenomenining namoyon bo'lishida emotsional munosabatlarning affektiv tomoniga e'tibor qaratilishi tasdiqlaydi.

Rashk fenomenining namoyon bo'lishida sevgining ta'sirini inkor etish noo'rin bo'lib, u birlamchi kuch vazifasini bajarishi quyidagicha izohlanadi: "Sevgi - bu insonda ta'sirchan kuch, inson va uning yaqinlari o'rtasidagi to'siqni yo'qotuvchi, uni boshqalar bilan birlashtiruvchi hamda yolg'izlik va begonalik tuyg'usini yengishga yordam beruvchi va shu bilan birga uning saqlanib qolishiga imkon beruvchi kuchdir".

"Sevgi - bu insonga nisbatan axloqiy munosabatdir. Bu muayyan bir kishining boshqa bir inson uchun mavjudligini tasdiqlash vazifasini bajaradi. Sevilish esa atrofdagilarning eng muhimi uchun boshqasi bo'lish demakdir".

Shu o'rinda badiiy adabiyot ijtimoiy hayotni ifodalagani tufayli o'zbek klassik adabiyotida ko'plab asarlar, jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida Zaynabning Otabek-Kumushbibilar munosabatiga nisbatan rashk hissi; "Mehrobdan chayon" asaridagi Anvar Mirzoga nisbatan saroy noziralari tomonidan namoyon etiladigan rashk hislari hasad, adovat, ko'rolmaslik, nafrat sifatida namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Rashk, o'ziga xos tashvish shakli sifatida tasniflangan har qanday hissiy holat singari, yaqin kishining mehriga bo'lgan ishonchning yetishmasligidan kelib chiqadi. Rashkni izohlashda uning uchinchi shaxsga, raqibga qaratilgani va sevgi obyektining muammosi sifatida qabul qilinishi kabi yondashuv ham mavjud.

Rashk fenomenining psixologik mohiyatini tushuntirishda M. Midning rashk hissi haqidagi fikrlari sevgi bilan qiyoslanadi, ya'ni rashk insondagi sevgi darajasini ko'rsatuvchi mezon emas, balki sevgisidan shubhalanish, hadiksirash, ishonchsizlikning ifodasidir. Xuddi shunday nuqtai nazarni O. Fenixel ham qo'llab-quvvatlagan. Uning fikricha, rashkchi insonlar sevishtga qodir bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, sevmagan insonga, hatto nafratlanadigan kishiga ham rashkini namoyon qilishi mumkin.

Insonning rashk hissi va sevgi-muhabbati o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligi, ya'ni odam qanchalik rashkchi bo'lsa, uning sevisht ehtimoli shunchalik kamayishi ta'kidlanadi. Bizning nazarimizda, shu sababli rashkni ilmiy tadqiq etish masalasida shoshilinch xulosa chiqarish bahs-munozaraga sabab bo'lishi ham mumkin, chunki rashk fenomenini o'rganish murakkab masaladir.

Shunga ko'ra, odamga nisbatan rashk qilish - bu munosabatlarda nimadir o'zgarib borayotganining belgisi: sherik bilan munosabatlarda shaxsning o'zi rashk tuyg'usini to'liq anglamayotgani va bilmayotganini ko'rsatadi.

Bundan ko'rinadiki, rashk hissi inson uchun rad etilish qo'rquvidir. Rashk hissi o'z-o'zini baholashda, yaqin munosabatlarda ishonchli-ishonchsiz, shubhali munosabatlarda namoyon bo'ladi. Rashk muammosini o'rgangan tadqiqotchilar bunday ikki xil munosabatni ambivalent deb talqin etadilar, hatto rashkni narsa yoki kimgadir egalik qilish qobiliyati kabi his etiladigan emotsiyalar majmuasi sifatida ham tavsiflaydilar.

Rashk qo'rquv va g'azab kabi asosiy hissiyotlarni uyg'otadi. Sevgi va u bilan bog'liq bo'lgan hamma narsani yo'qotish ehtimoli insonda qo'rquvni keltirib chiqaradi. Sevgi, boshqa narsalar qatori, xavfsizlik hissini ham anglatadi. Rashk fenomenida g'azab tuyg'usi ham ifodalanadi. Agar inson yaqin kishisi bilan bo'lgan munosabatlardagi mavqei saqlab qolishni istasa-yu, biroq bu istagi natija bermasa, bu o'z-o'zidan rashkchi insonda ichki norozilikni yuzaga keltiradi va g'azabga aylanadi.

Rashk hissidan ko'ra uning oqibati masalasida fikrlab ish tutish muhimligi, jumladan, "rashkdan ko'ra odamlarning xatti-harakatlarida iz qoldiradigan og'riqli ruhiy holatni nomlash mumkin emas" degan qarash, bizning nazarimizda, bu hisning inson psixologiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi keskin va jarohatli hodisa ekanligini asoslaydi.



Rashk fenomeni insonning emotsional sohasi bilan bog'liq holda undagi agressiya, o'ziga va boshqalarga nisbatan norozilik, xavotir ko'rinishlarida ham o'zini namoyon etadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, jahon klassikasining namoyandasi Vilyam Shekspir rashkni "yashil ko'zli yirtqich hayvon" deb ta'riflagani hamda o'z pyesalarida turli "qiyofalarda" namoyon bo'lishini ko'rsatgani barchaga ma'lum.

O'tgan asrda ayol jamiyat va oilaning teng huquqli a'zosi sifatida e'tirof etilganidan keyin, hatto rashk tuyg'usiga nisbatan: rashk - bu "g'ayritabiiy tuyg'u", "o'tmish qoldig'i" kabi fikrlar paydo bo'ldi. Shunga qaramay, rashk ijtimoiy hayotda erkaklar va ayollar, bolalar va o'spirinlar orasida ko'proq uchraydi va uning o'ta jiddiy oqibatlarini hanuzgacha kuzatilmoqda. Jamoatchilik fikri rashk qiluvchi insonlarga hamdardlik bildiradi va hatto qonunda rashk shaxsga nisbatan og'ir jinoyatlar uchun "yumshatuvchi holat" deb hisoblanadi.

Rashk ma'lum bir yosh davrida o'zini to'liq namoyon etadi. Rashk o'spirinlik davrida tez-tez va keskin namoyon bo'ladi. Bu, asosan, hozirgi paytda yoshlarning ma'lum bir nomukammallik, yetuklik, ma'lum bir to'liqsizlikni his qilishlari bilan bog'liq. O'z-o'zini ta'minlash va tajriba tuyg'usini shakllantirish bilan rashkning kuchi va keskinligi pasayadi.

Rashk tuyg'usi bilan yanada kuchli va chuqurroq tuyg'ularni egallashda uning mohiyatini bilish muhim rol o'ynaydi, ya'ni xiyonat qilish, aldash, tegishli xatti-harakatni kutib olish uchun ichki tayyorgarlik. Rashkchi o'spirinlik davrida ota-onasi va do'stlarining xiyonatiga guvoh bo'lishi mumkin. Bunday munosabat, agar inson boshqa insonlarga nisbatan ishonchsizlik ruhida tarbiyalangan bo'lsa, yuzaga keladi.

Tadqiqotlarda ko'pincha oila a'zolaridan biri rashkchi ekanligi qayd etiladi. Bu borada ota-onalarning farzandlariga nisbatan tanlab munosabatda bo'lishi, birini ikkinchisi oldida maqtashi, afzalligini ko'rsatishi shunday psixologik holatni yuzaga keltiradi.

Yoshi katta, oila qurgan insonlarda esa jufti boshqa odam bilan iltifotli suhbatda bo'lishi o'zaro munosabatlarda xavf tug'diruvchi holat sifatida qaraladi. Rashk ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi: turmush o'rtoqlar orasidagi munosabatlarning yomonlashuviga, biznesdagi sheriklarning hamkorligini to'xtatishiga olib keladi, turmush o'rtoqlardan birining yoxud ota-ona va boshqa oila a'zolarining rashki tufayli oilalar buziladi. Shu tarzda rashk hissi g'azab, rad etish, eng yaqin do'stlar o'rtasidagi munosabatlarning uzilishiga ham olib keladi.

Rashkning psixologik tabiatiga ko'ra quyidagi ko'rinishlari mavjud: odamlarga, yutuqlarga, buyum-narsalarga qaratilgan rashk. Masalan, mehnat jamoasida ba'zi xodimlarning mavqeyi, obro'si, tashqi ko'rinishiga; ba'zilarning jihozlari, avtomashinalari va shu kabilarning mavjudligi va boshqalar tarzida. Bularning barcha ko'rinishlari hasad, ko'rolmaslik kabi illatlarni yuzaga keltiradi.

Har bir insonning rashkka bo'lgan munosabati uning hissiyotlari, kayfiyatlari va istaklarida aks etadi hamda mustahkamlanadi. Buning psixologik mexanizmi shaxs xulqidagi konativ tomon deb tushuntiriladi. Rashkning namoyon bo'lishi shaxs his-tuyg'ularida aks etishi - affektiv tomonni bildiradi.

Rashk fenomenini o'rganishga ijtimoiy talab mavjud bo'lishiga qaramay, yaqin vaqtgacha rashkka nisbatan ikkinchi darajali, ahamiyatsiz sifatida qarash shakllangan, hatto kasallik alomati sifatida qarab, bu hisni patopsixologik va tibbiyotga tegishli fenomen deb talqin qilish ham uchraydi.

Rashk muammosini ijtimoiy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan hodisa sifatida qarash ham mavjud [26; 141-b.]. Bunday yondashuv tufayli rashkka beriladigan ta'rif turlicha bo'ladi. Masalan, "rashk biror shaxsga nisbatan kuzatilsa, uning psixologik mohiyati shaxslararo munosabat bilan izohlanadi". Rashk "shaxslararo munosabatlarning turli jihatlarini aks ettiradi va tartibga soladi"; "rashk - odamning yaqin kishisiga nisbatan shubhali munosabati, uning sadoqatiga shubha bilan qarash yoki xiyonatini bilish bilan bog'liqligidir" deb izohlanishi ham mumkin. Rashk fenomenini tushuntirishda shaxslararo munosabatlarda uchlik yuzaga kelishi muqarrarlari ham izohlanadi: rashk qiluvchi kishi bo'lgan joyda uchlik yuzaga keladi - birinchisi rashkchi, ikkinchisi rashk qilingan shaxs, uchinchi esa ular rashk qilgan kishi(lar). Demak, rashk barcha odamlarda u yoki bu ko'rinishda uchraydi, degan xulosaga kelish mumkin.

G'arb psixologiyasida rashk faqat ikki kishi o'rtasidagi emas, balki jamoatchilikni ham qamrab oluvchi to'rtinchi tomonga xos munosabat ekanligi asoslanadi. Ya'ni, sherik va raqib o'rtasidagi munosabatlarning qanday kechayotgani va rivojlanayotganiga doimo qiziquvchi to'rtinchi tomon - jamoatchilikni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi: "Rashk hissi shaxsiy ehtiros bilan istagan narsasiga ega bo'lmaganda paydo bo'ladi va rashk hissi, raqib mavjudligi sababli, shaxs o'ziga tegishli narsani yo'qotishdan qo'rqadi hamda o'zi uchun muhim bo'lgan narsada namoyon bo'ladi".

Rashkning namoyon bo'lishi sevgi, do'stlik, kasbiy faoliyat, shaxslararo munosabatlardan tashqari boshqa ijtimoiy sohalarida ham kuzatiladi. Ammo biz nikoh-oila munosabatlarida rashk fenomenining yuqori darajada dolzarblashuvini kuzatamiz. Buning sababi shundaki, rashk hissi insonning eng yorqin tuyg'ularidan biri - muhabbatga hamroh bo'ladi.

Rashkning psixologik xususiyati shaxs e'tiqodi, g'oyasi, tuyg'ularida, ayniqsa, his-tuyg'uni boshqa insonga nisbatan o'ziga tegishli deb hisoblashida namoyon bo'ladi. Natijada inson doimiy depressiya holatida yashashi va shubhaga berilishi muqarrar bo'lib qoladi.

Bizning nazarimizda, rashkning psixologik fenomen sifatidagi tabiati haqidagi xorij va MDH olimlarining yuqoridagi fikrlaridan ko'rinadiki, bu tuyg'uni tushuntirishda qarama-qarshi tushunchalar - rashkni qo'rquv, g'azab, o'ziga ishonmaslik kabi holatlar bilan uzviy bog'liq holda ifodalash xosdir. Bunday yondashuv shaxsning o'z hayotida kelajakda xiyonatga duch kelishidan qo'rqish, shaxslararo munosabatlar haqidagi noto'g'ri qarashlar hamda ishonchsizlik yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Inson psixologiyasi va mohiyati nafaqat uning faoliyati tabiati, mavhum fikrlash yoki boshqalarni fidokorona sevish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Insonning tabiatida vayronkor va hatto o'zini yo'q qiluvchi xarakter xususiyatlari: hasad, rashk, qasos, shuhratparastlik va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, bir tomondan, fazilatlar va qadriyatlar o'rtasida, yomonliklar va buzuqliklar o'rtasida, ikkinchi tomondan esa qat'iy belgilangan, bir marta va umuman o'rnatilgan axloqiy chegaralar mavjud emas. Ko'pincha ular shu qadar chambarchas bog'langanki, mag'rurlikni behudalikdan yoki sevgini rashkdan ajratib bo'lmaydi.

Psixologiya va etika, qoida tariqasida, ijobiy axloqiy tushunchalarga: erkinlik, adolat, javobgarlik, rahm-shafqatga qaratilgan. Kamdan-kam holatlardan tashqari, axloqiy yovuzlikning o'ziga xos namoyon bo'lish muammosi tadqiqotning diqqat markazida qolmaydi yoki axloqiy me'yordan ahamiyatsiz narsa sifatida tavsiflanadi va shu tariqa ko'pincha haqiqatdan uzoq, bir tomonlama idealizatsiya qilingan inson va uning harakatlari qiyofasini aks ettiradi.

Bu hissiyotning insonning haqiqiy, kundalik hayotidagi shubhasiz ahamiyatiga qaramay, rashk hissi mavzusiga bo'lgan aniq qiziqish hali yetarlicha rivojlanmagan muammolar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, ushbu hodisani inson tabiatining eng xarakterli ontologik belgilaridan biri sifatida yaxlit ko'rib chiqish bizga jamiyatdagi turli munosabatlar makonini va individual xususiyatlarni yanada to'liq va to'g'ri tarzda tasvirlash imkonini beradi.

Shunday qilib, rashk fenomeni birinchi navbatda uning universal va madaniy-universal xususiyati bilan belgilanadi, bu esa insonning ko'p qirrali va ziddiyatli tabiatini yaxlit tushunish imkonini beradi.

Inson tabiatining namoyon bo'lishi sifatida rashkni o'rganish dolzarbligini uning psixologik jihatdan asoslanganligi, uni muayyan vaziyatlarda ko'rib chiqish orqali yanada to'ldiriladi. Rashk insonning turli vaziyatiga qarab o'zgaradi, ma'lum bir davrning qadriyatlari, urf-odatlar va holatiga qarab xarakterini o'zgartiradi. Bu nuqtai nazardan, rashkning turlarini va unga bo'lgan munosabatni - to'liq rad etishdan tortib to tan olishgacha - o'rganish ma'lum bir davrni uning asosiy insoniy xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflash imkonini beradi. Rashk fenomenining kelib chiqishi va rivojlanishiga psixologik nuqtai nazardan alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, rashkning turli ko'rinishlariga qiziqish, qoida tariqasida, turli hodisalar bilan birga keladi. Insonning o'dob-axloqidagi salbiy hodisalarning yaxlit va obyektiv manzarasini yoki, aksincha, uning tabiatidagi barcha ko'rinishlarni bir tomonlama salbiy va o'ziga xizmat qiluvchi sifatida talqin qilish mumkin.

Shunday qilib, rashk fenomeni, uning sabablari va oqibatlari, insonning ijtimoiy tizimdagi o'rni va ijtimoiy munosabatlarga insonparvarlik yoki, aksincha, dehumanizatsiyaga ta'sirini tushunishni talab qiladi. Jamiyat rashkning mohiyatini tushunishi, uning namoyon bo'lishini tan olishi, o'zini to'g'ri anglashi kerak.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rashk haqidagi asosiy g'oyalar qadimgi davrlarda shakllangan. Sokrat rashkda murakkab va ziddiyatli hissiy tuyg'uni - "azob va zavq aralashmasini" ko'rgan ^[1, 54-b.]. Bu qaytarib bo'lmaydigan er-xotinlik, rashkning noaniqligi, uning yovuzlik va yaxshilik bilan genetik aloqasi keyinchalik Platon va Aristotel tomonidan qayd etilgan. Xitoyning Zenon, Epiktet nazariyalarida esa boshqacha yondashuv mavjud bo'lib, ular ehtirolarni beparvolik va bema'nilik deb e'lon qilishgan.

O'rta asrlar va Uyg'onish davrida birinchi yondashuv ustunlik qilib, rashk ko'p jihatdan noaniq hodisa sifatida qabul qilingan. Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy va keyinchalik J. Bruno, Rotterdamlilik Erazm, M. Monten va boshqalar uchun rashk, birinchi navbatda, muhabbat bilan bog'liq (keng ma'noda tushuniladigan) hodisa sifatida tasvirlangan va u haqda kam yozilgan.

Yangi asr G'arbiy Yevropa mutafakkirlari asarlarida rashkning turli xil talqinlarining keng ko'lami ko'zga tashlanadi: F. de Laroshfuko, B. Paskal, R. Dekart, B. Spinoza, T. Gobbs, B. Mandevil, Sh. Monteskye, K. Gelvetsiy, D. Yum, I. Kant va boshqalar bu hodisani tahlilini keltirar ekan, uning namoyon bo'lish shakllari va tadqiq qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqishgan; shuningdek, "rashk" tushunchasining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari ham ta'kidlangan. Ushbu bosqichning asosiy tendensiyasi rashkni asotsial, irratsional ta'sir sifatida talqin qilish hamda ong yordamida uni cheklashga qaratilgan chaqiriqdir.

XIX-XX asrlardagi G'arbiy Yevropa irratsionalizm vakillari, xususan, A. Shopengauer rashkni jinsiy muhabbat metafizikasi bilan bog'liq holda o'rganish, F. Nitshe esa uni murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida kengroq yoritgan. Rashkning kelib chiqish psixologik mexanizmlari psixanaliz falsafasida Z. Freyd, K. G. Yung, E. Fromm va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Bu hissiyotning ekzistensial xususiyatlarini S. Kyerkegor, J. P. Sartr, A. Kamyu, X. Ortega-i-Gasset, K. Yaspers, rashkning ba'zi paradoksal va ambivalent ma'nolarini esa J. Bodriyar, J. Derrida, J. Delyoz, F. Gvattari yoritib berishgan.

Rashk haqidagi alohida kuzatishlar J. Rols, V. Frankl, shuningdek, A. Maslou, K. Rodjers ishlarida ham uchraydi. Hatto rus falsafiy asarlarida ham rashk muammolari F. Dostoyevskiy, L. N. Tolstoy, I. Ilyin, VI. Solovyov,



S. Bulgakov tomonidan ko'tarilgan bo'lib, ular bu hissiyotning ijobiy jihatlarini ham ta'kidlashgan. Zamonaviy psixologiyada rashk fenomenini A. Guseynov, R. Apresyan, O. Drobnitskiy, A. Sogomonov, M. Epshteyn asarlari kontekstida ham tushuntirish mumkin. Rashkning namoyon bo'lish shakllari bo'yicha uslubiy va nazariy shart-sharoitlar belgilangan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ushbu mutafakkirlarning barchasi uchun rashk muammosi alohida katta ahamiyatga ega bo'lmagan va faqat boshqa muammolar - his-tuyg'ular, sevgi, yomonliklar, munosabatlar va boshqalar bilan bog'liq holda ko'rilgan.

G. Klanton, S. Kristianon, A. Peyn va boshqalarning rashkka oid xorijiy tadqiqotlari ham asosan psixologik va ijtimoiy-antropologik yo'nalishga ega ^[1, 2, 3, 4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umuman olganda, rashkni insondagi ichki yovuzlikning o'ziga xos namoyon bo'lish shakli sifatida tahlil qilish lozimligini tan olishimiz kerak. Rashk fenomeni an'anaviy ravishda uni tushunishga bo'lgan nazariy yondashuvlarda ziddiyatlarni keltirib chiqargan. Nazariy yondashuvlarning xilma-xilligi rashk fenomenining noaniqligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yo'nalishlardan foydalanish mumkin: rashk mohiyati to'g'risidagi mutafakkirlarning qarashlarini tahlil qilish; turli an'analarni kontekstida rashkning psixologik xususiyatlarini aniqlash; rashk fenomenining kelib chiqishi, dinamikasi va xususiyatlarini belgilash; rashkning ichki ziddiyatli tabiati va evolyutsion bosqichlarini aniqlash.

Tadqiqotimizning nazariy asosini A. Guseynov, R. Apresyan, O. Drobnitskiy, A. Sogomonov, M. Epshteyn, A. Skripnikning g'oyalari tashkil etadi, shuningdek turli ko'rinishlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun sotsiologik va psixologik omillarni ham hisobga olish zarur.

Tadqiqotda rashkning psixologik xususiyatlari, insoniy munosabatlarda birinchi marta keng qamrovli psixologik va ilmiy tahlil qilinishi psixologiya fanining emotsional munosabatlarni ilmiy tadqiq etishga qo'shgan hissasi sifatida baholanishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, rashk fenomenini ilmiy adabiyotlarga tayangan holda qadimiy tarixi bo'yicha kuzatsak, u yovuzlik shakli sifatida yuzaga kelganligi aniqlandi; ilmiy nuqtai nazardan rashkning roli o'rganilib, uning shaxs axloqiga, ijtimoiy aloqalariga va oilaviy munosabatlarga ta'siri shubhasiz ekanligi ko'rinadi; rashk fenomenining asosiy turlari va namoyon bo'lishi, uning batafsil tipologiyasini bilish zarurligi belgilandi.

Tadqiqotimizda emotsional kategoriya sifatida rashk deganda kimningdir ishonchsizligi haqidagi qo'rquvni aks ettiruvchi tuyg'u, uning negizida munosabatlarning buzilishi, o'zini past baholash va shaxsning izdan chiqqan hissiyotlari, shaxslararo munosabatlar darajasida intim-shaxsiy va ijtimoiy-kommunikativ jihatdan namoyon bo'luvchi hamda salbiy baholanadigan harakatlarga olib keluvchi psixologik holatni tushunamiz.

Rashk - bu psixologik va ijtimoiy sohaning boshqa hodisalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ambivalent hodisa. Rashk tushunchasi insonning ijtimoiy roli, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi, ayniqsa, faoliyati va oilasida namoyon bo'ladigan xususiyatlari kontekstida uzviy bog'langandir.

Rashkda kuzatiladigan kommunikativ aloqalarning buzilishi shaxsning qadr-qimmatini kabi asosiy insoniy tamoyillariga ta'sir qiladi. Haqiqiy sevgi rashk bilan bog'liq emas. Shunday qilib, chinakam sevgi rashkning salbiy ko'rinishlarini yengishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Rashkning o'ziga xos namoyon bo'lishini ko'rib chiqish uning turlarini tasniflashga imkon beradi. Erotik va ijtimoiy-madaniy rashk uning ikki asosiy turi sifatida tan olinadi. Erotik rashk o'zining o'ziga xos zo'rliqligi bilan rashkning eng keskin shaklini tashkil etadi, unda butun voqealar keskinlashadi va yaqqol namoyon bo'ladi.

Rashk muammosi bo'yicha falsafiy, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik adabiyotlardan ma'lum bo'ldiki, mazkur muammoni psixologiya, falsafa, etika va boshqa ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan uyg'unlashtirgan holda tushuntirish ko'plab nizolarning oldini olishga hamda ularni bartaraf etishga yordam berishi, shu orqali jamoa va oilalar muhitini sog'lomlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarning keskin holatlariga va rashkning halokatli namoyon bo'lishiga hissa qo'shadigan muammolar alohida ahamiyatga ega. Rashkning ilmiy va amaliy tahlili ushbu muammoning sabablarini tushunish hamda uni shaxsning ma'naviy o'sishiga va ijtimoiy moslashuviga hissa qo'shadigan konstruktiv yo'nalishga burish imkonini berishi mumkin.

Rashk hissiy sohaning ko'p qirrali hodisasi bo'lib, u bir qator vazifalarni bajaradi. Rashk qisqa muddatli va keskin kechinma sifatida ham, uzoq muddatli munosabat sifatida ham, inson ongini to'liq egallab oluvchi ehtiros sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin, degan xulosaga keldik. Shaxsning intellektual funksiyalari va xatti-harakatlarining adekvatligi yo'qolgan holatda, rashk insonning ongini boshqarib bo'lmaydigan darajaga yetib boradi.



Psixologik va hissiy kategoriya sifatida rashkning negizini kognitiv, xulq-atvor va affektiv jihatlar tashkil etadi: shaxsning izdan chiqqan his-tuyg'ulari, subyekt va subyekt-obyekt munosabatlarining pastligi hamda ijtimoiy-kommunikativ jihatdan buzilishi, yo yo'qsa konstruktiv pozitsiyaga olib kelishi mumkin, bu esa muayyan vaziyatda subyektning harakatlarini belgilaydi.

Shunday qilib, rashk tushunchasi o'zgarishsiz qolmagan. Uning namoyon bo'lishi faqat erotik yoki nikoh-jinsiy munosabatlar doirasida cheklanib qolmasdan, insonning barcha intilishlari - kasbi, sevimli mashg'uloti, jinsidan tashqari oila va do'stlik, ilm-fan, san'at va siyosat kabi ijtimoiy sohalarda ham kuzatiladi. Ammo biz nikoh va oila munosabatlarida rashk fenomenining eng yuqori darajada dolzarblashuvini kuzatamiz, ya'ni eng xarakterli ko'rinishi jinsiy (erotik) rashkdir. Buning sababi shundaki, u og'ir azob-uqubat keltirib chiqaradi hamda insonning eng yorqin tuyg'ularidan biri - sevgiga hamroh bo'ladi.

Tadqiqot mavzusida his-tuyg'ular bilan bog'liq hodisalarning o'zgarishi, nikoh va ota-onalik hissiyotlari hamda majburiyatlari kabi asosiy ijtimoiy tushunchalarga individual qarashning o'ziga xos yondashuvi bilan izohlanadi. Shuning uchun jamiyat uchun umumiy narsa - odamlarning raqib bilan munosabatlarni shaxslararo munosabatlariga tahdid soluvchi hodisa sifatida qabul qila olishidir.

Hissiyotlar ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan muayyan vaziyatlar bilan bog'liq. Odamlar ma'lum darajada turli munosabatlarda bo'lishadi. Biroq odamlarda o'zaro munosabatlarning namoyon bo'lish usullari ularning ijtimoiylashuvi bilan belgilanadi, bu esa o'z-o'zini anglash darajasi, shaxsning ma'naviy takomili, axloqiy munosabat va qadriyatlarining shakllanishiga bog'liq.

Aniqlanishicha, rashkning mohiyati shaxsda muhim biror yaxshilikni yo'qotish xavfi bilan ifodalanadigan, bu yaxshilikni - muhabbatni, do'stlikni - saqlab qolish istagi bilan uyg'unlashgan egalik hissi bo'lgan xudbinlik xususiyati sifatida belgilanadi yoxud ustuvorlikni yo'qotishdan tug'ilgan umidsizlik (noqulaylik) sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan rashk antisosial harakatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan, munosabatlardagi salbiy ta'sirlarning sababi aloqaning buzilishi, shuningdek, o'zini chetdan kuzatish daqiqalarining yo'qligi, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishni xohlamaslikdir. Rashkdan faqat o'z maqsadlariga erishish vositasi sifatida foydalanishga asoslangan kommunikativ strategiya munosabatlardagi sherikni manipulyatsiya, bosim va shu kabilarga duch kelishi mumkin bo'lgan obyekt sifatida taqdim etilishiga olib keladi. Rashk ikkinchi tomonni o'ziga bo'ysundiradi, uni erkinlik va o'ziga xoslik huquqidan mahrum qiladi. Shu bilan birga, u insonning ongini buzadi, sevgini hukmronlik va egalik uchun kurashga aylantiradi.

Bunday munosabatlar faqat chinakam muhabbatda mumkin bo'ladi, bu yerda yaqinlikning ma'naviy yadrosi mavjud bo'lib, sevgi yuksak qadriyatlarni takrorlash sifatida namoyon bo'ladi. Boshqalar bilan kelisha olish, his-tuyg'ular va harakatlar, his-tuyg'ular va so'zlar, boshqa insonlar bilan munosabat o'rnatish qobiliyati odamga "ziddiyatli, inqirozli vaziyatlardan" eng maqbul yo'lni topishga imkon beradi, bu esa, albatta, rashkning oldingi holatini ham o'z ichiga oladi.

Rashk boshqa odamlarning o'z mulki emasligini anglash bilan tenglashtiriladi, ya'ni ularning tanlash erkinligi, harakatlari, fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlari mustaqil shaxslarga tegishli ekanligini tan olish va qabul qilish orqali anglanadi. Birinchidan, bu - o'zini ahamiyatli his qilish, mustaqil shaxs bo'lish, o'zini rivojlantirish, o'zligini qabul qilish, o'zini sevis va hurmat qilishni talab etadi. O'ziga nisbatan to'g'ri munosabat orqali inson atrofdagi dunyoga va odamlarga nisbatan ham munosabatini rivojlantirishga erishadi.

Shunday qilib, rashk insonning qadr-qimmatini, o'ziga xosligi va o'z-o'zini anglash tushunchasi sifatida namoyon bo'ladi. Rashkning sevgi, oilaviy munosabatlar va sadoqat kabi tushunchalar bilan bog'liqligini aniqlash zarur.

Rashkning ijtimoiy-madaniy ko'rinishlarini ko'rib chiqish axloqiy tahlil uchun muhim emas, chunki bu ijtimoiy axloqni turli darajalarda, turli sharoitlarda va boshqa his-tuyg'ular bilan bog'liq holda namoyon etish imkonini beradi.

Insonning tarbiya darajasi - yuqori yoki past bo'lishidan qat'i nazar - bu uning o'z-o'zini anglash darajasiga, shuningdek, rashk tuyg'usiga ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Bu borada bir qator mutafakkirlar yuqori tarbiya darajasiga, o'z-o'zini boshqarish qoidalariga ega insonlar o'z ehtiroslarini nazorat qila olishlarini ta'kidlaydilar. Odamlarga hurmat, har bir insonda yaxshi fazilatlarini topa olishga ishonch, o'z harakatlari uchun javobgarlik hissi, yetarli darajada o'zini hurmat qilish, saxovat va minnatdorchilik bildirish qobiliyati - bular rashkni boshqarishga imkon beruvchi fazilatlaridir.

Umumlashtirilgan holda, rashkni obyektga qaratilgan xulq-atvor sifatida tasniflash mumkin. Bu borada shaxsdagi rashk uning ijtimoiy roliga qarab ko'rib chiqiladi. Ya'ni, u turmush o'rtog'i, sevgan inson, ota yoki onasi, singlisi yoki ukasi, sherigi yoxud xodimi kabi rollarda namoyon bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash nuqtai nazardan rashkni o'rganib, xavf ostidagi munosabatlarning o'zini tartibga solish xususiyatlariga qarab uning turli ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Shubhasiz, oila va nikoh, kasbiy etika, biznes etikasi kabi sohalarda aks etgan munosabatlarning turli ko'rinishlari uchun o'ziga xos psixologik tartibga soluvchi mexanizmlar



mavjud. Har bir holatda rashkning salbiy ko'rinishlarini minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berishda munosabatlar doirasini hisobga olish kerak.

Rashkka bog'liq holda tasniflash uchun ijtimoiy-demografik belgilarni ham ajratish mumkin: yosh (bolalik davridagi, balog'at yoshidagi va keksalik davridagi rashkning o'ziga xos jihatlari mavjud) hamda jinsiy xususiyatlarga ko'ra belgilanadi. Shuningdek, rashkning turlarini uning vayronkor asoslari yo'nalishi bo'yicha ajratish taklif etiladi. Shu munosabat bilan rashkning faol, passiv va azobli shakllari mavjud. Birinchi holatda rashk tajovuzkorlik, zo'ravonlikka moyillik, adovat nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi; ikkinchisida - qo'rqqoqlik bilan bog'liq o'z-o'zini yo'q qiluvchi tuyg'u, tashqi sharoitlarni yengish uchun ichki kuchning yetishmasligi, o'z ahamiyatsizligini anglash va boshqalar. Haddan tashqari kuchli ko'rinishlarda rashkning turlari o'ziga xos ijtimoiy me'yorlarni ham inkor etishi mumkin.

Shunga ko'ra, rashk quyidagi turlarga ajratiladi: normal va patologik. Normal tur vaziyatni yetarlicha baholay olish bilan ajralib turadi, ko'pchilik uchun tushunarli bo'lib, ko'pincha shaxs tomonidan nazorat qilinadi; patologik rashk esa haddan tashqari kuchli, insonning hissiy tabiatida ortiqcha darajada namoyon bo'lishi sifatida taqdim qilinishi lozim. Shubhasiz, patologik rashk yuqori darajadagi ijtimoiy xavfga ega.

Rashkning namoyon bo'lish shakllida hissiy va faoliyat reaksiyalarini ajratish mumkin. Hissiy shaklida hissiy, affektiv reaksiyalar namoyon bo'ladi: tushkunlik, g'azab, nafrat, sevgi va umid kabi hissiyotlar shaxsning o'zi uchun halokatli bo'lishi mumkin. Ko'pincha bu vaziyatni tahlil qilish qobiliyatini, shuningdek, his-tuyg'ularni ong nazorati ostiga olish va salbiy holatdan xalos bo'lish qobiliyatini ham anglatadi. Faol reaksiyalar esa muayyan harakatlar shaklida namoyon bo'ladi - masalan, janjal yoki rad etish kabi ko'rinishlarda.

Odatda, har qanday haqiqiy rashk holati ma'lum darajada ushbu ko'rinishlarning birini yoki bir nechtasini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, rashk jamiyatda shaxslararo munosabatlarning barcha darajalarida o'zini namoyon qiladi, insoniy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi va shaxs faoliyatini o'ziga xos tarzda taqdim etishga yordam beradi.

Demak, rashk - bu shaxsning zaif tomonlarining ongsiz ravishda namoyon bo'lishining bir turidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, oiladagi o'zaro munosabatlar rashk fenomenining mexanizmlari, shakllari va inson hayotida bajaradigan vazifalarini yanada chuqur ilmiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanmasi. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007. - 166 b.
2. Andreyeva T.V. Semeynaya psixologiya. - SPb.: Rech, 2004. - 244 s.
3. Vasilyuk F.Ye. Psixologiya perejivaniya (analiz preodoleniya kriticheskix situatsiy). - M.: Izd-vo Mosk. un-ta, 1984. - 200 s.
4. Semyagina O.S. Emotsionalnye otnosheniya v semye. - Kishinev: Shtiintsa, 1991. - 85 s.
5. Muzdibayev K. Psixologiya zavisti i revnosti // Psixologicheskiy jurnal. 1996.- T. 18, No. 6. - S. 3-37.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.